


Hamidulla Dadaboyev

O'ZBEK TERMINOLOGIYASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Hamidulla Dadaboyev

O'ZBEK TERMINOLOGIYASI

o'quv qo'llanma

**"Mediastartup" nashriyoti
Toshkent - 2020**

KBK: 81.2 O'zb-3

D-15

UOK: 573(075/32)

Dadaboyev, Hamidulla

O'zbek terminologiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma / H. Dadaboyev.
- Toshkent: Nodirabegim, 2020. - 144 b.

ISBN 978-9943-6307-5-8

Mazkur o'quv qo'llanma "O'zbek terminologiyasi" fanining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida tuzilgan bo'lib, u o'zbek tili terminlar tizimi, taraqqiyot bosqichlari va hozirgi takomillashish davridagi fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Qo'llanma terminologiyaga oid adabiyotlar, lug'atlar va o'zbek adabiy tili rivojlanish dinamikasini o'zida mujassam etgan ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarda qayd etilgan ashyoviy materiallar bazasida tuzilgan bo'lib, fanning asosiy masalalarini qamrab olgan.

O'quv qo'llanma matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilidagi o'quv adabiyotlarini yaratish to'g'risida"gi 2004-yil 23-yanvar 20-sonli buyrug'iga asosan tayyorlandi.

O'quv qo'llanma talabalar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va o'zbek tili terminologiyasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Sirojiddinov Sh. – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Mamatov A. – filologiya fanlari doktori, professor.

Abdushukurov B. – filologiya fanlari doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 27-dakabrda 1186-sonli buyrug'iga asosan nashrga tayyorlangan etilgan.

© Dadaboyev H
© "Nodirabegim" nashriyoti, 2020

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish" va "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda o'zbek terminologiyasi sohasining predmeti, maqsadi va vazifasini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan bosh masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda terminologiyaning maxsus ilmiy-texnikaviy ma'nolarni ifodalovchi termin yoki so'z birliklari tizimi, uning muayyan adabiy til so'z boyligida albatta mavjudligi, leksikaning ajralmas bir qismi ekanligi, terminlar bilan leksika orasida farq borligi xususida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, terminlar shakllanishida intralingvistik va ekstralingvistik usullarning roli, terminlarning struktur-grammatik qurilishi qatlamlari, hosil bo'lish yo'llari, terminlar tarkibidagi leksik-semantik jarayonlar, terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik tadqiqotlar, terminologik lug'atlar borasida ma'lumot berish muhim vazifalardan iborat.

Fanning maqsad va vazifalari. "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonda ta'kidlanganidek: "Eng avvalo, ona tilimizning rivojlanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o'ziga dozalab masalaga aylanmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya fanlariga (matematika, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, yurispudensiya, pedagogika, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy usullar, metodlar, texnologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va ibtidoiy so'zlarni qayd etish lozim". Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda fanni o'qitishning maqsadi terminologiya sohasining mazmun-mundarijasini belgilash, o'zbek terminologiyasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, qadimgi turkiy tili va o'zbek tili, eski o'zbek adabiy tili, hozirgi o'zbek adabiy tili va o'zbekiston davlat o'zbek tili terminologiyasining shakllanish va rivojlanishiga ta'kid bo'lgan ilmiy shart-sharoit va omillar, terminlar